



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2021 - yil 15 - iyul

VI-36-6-7-93-K/21

Bulung'ur tuman hokimligi

Tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri J.Narziyevning tuman budjet ijrosi, shuningdek tuman salohiyatidan kelib chiqqan holda tuman budjet daromadlarining qo'shimcha manbalarini shakllantirish hamda qo'shimcha manbalardan foydalanish yo'nalishlari, jumladan, tuman budjet daromadlarini oshirishning aniqlangan rezervlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti haqida

2021-yil 6 oylik davr mobaynida tuman mahalliy budjetini sifatli qilib ijrosini ta'minlash borasida muayyan ishlar bajarilib, tuman mahalliy budjetining daromadlar prognoz rejasi 119,4 foizga bajarildi yoki rejadagi 22 942,8 mln. so'm o'rniga haqiqatda 27 390,8 mln. so'm daromad tushirilib 4 448,0 mln. so'm ko'p mablag' tushirildi.

Soliq va tushumlar rejasi umumiy ko'rinishda bajarilgan bo'lsada, tadbirkorlardan undiriladigan qat'iy belgilangan soliq 22,0 mln. so'mga, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i 51,0 mln. so'mga, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq 408,0 mln. so'mga, soliqsiz daromadlar va mahalliy budjetning boshqa tushumlari 333,6 mln. so'mga bajarilmasdan qoldi.

Mahalliy budjet harajatlarini qoplash uchun respublika budjetidan jami 33 391,9 mln. so'm miqdorida transfert mablag'i olindi. Bu esa jami daromadlarning 54,9 foizini tashkil etmoqda.

2021-yilning boshiga tuman mahalliy budjetida 2 174,0 mln. so'm miqdorida erkin qoldiq mablag'i shakllandi. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2021-yil 29-yanvardagi 148/21-VI-sonli qarori asosida viloyat budjetidan Bulung'ur tuman mahalliy budjetiga 1,0 mlrd. so'm mablag' ajratilib

erkin qoldiq mablag‘i jami 3 174,0 mln. so‘mni tashkil etdi.

Yilning o‘tgan 6 oyi davri davomida erkin qoldiq mablag‘i hisobidan Prezident tashrifi va “Obod qishloq” dasturi doirasida hududlarni obodonlashtirish harajatlariga 848,4 mln. so‘m, “Yoshlar dasturi” doirasida 125,0 mln. so‘m, mahalla fuqarolar yig‘inlarining binolarini ta‘mirlash va rekonstruksiya qilish ishlariga shuningdek, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun 1075,3 mln. so‘m, budjet tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun 370,2 mln. so‘m, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va hududlarda infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha harajatlarga 228,7 mln. so‘m miqdorida mablag‘ ajratildi.

Joriy yilning 1-choragida shakllangan 4156,0 mln. so‘m miqdoridagi mablag‘ hisobidan “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” jamg‘armalariga 1869,0 mln. so‘m, “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga 415,6 mln. so‘m, “Obod qishloq” dasturi doirasida 159,5 mln. so‘m, mahalla fuqarolar yig‘inlarining binolarini qurish, ta‘mirlash va moddiy texnik bazasini mustahkamlash harajatlariga 850,0 mln. so‘m, hududlarni obodonlashtirish va infratuzilmani yaxshilash uchun 247,4 mln. so‘m, boshqa sarf harajatlarga 613,5 mln. so‘m mablag‘ ajratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-iyundagi 445-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, joriy yilning yanvar-iyun oylarida 618 ta holatda 1096,5 mln. so‘m qo‘shimcha daromadlar manbalari aniqlangan.

Jumladan,

- 224 ta holatda jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan turar va noturar obyektlarga qo‘shimcha hisoblangan mol-mulk va yer solig‘idan - 86,3 mln. so‘m;

- 84 ta holatda tegishli tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan noqonuniy tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib kelayotgan fuqarolarga hisoblangan qat‘iy daromad solig‘idan - 181,7 mln. so‘m;

- 18 ta holatda tegishli tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan umum ovqatlanish faoliyati bilan shug‘ullanib kelayotgan subyektlardan - 482,3 mln. so‘m;

- 49 ta holatda bozorlar va savdo komplekslari ma‘muriyati tomonidan tushumlarni to‘liq qamrab olinmaganligi va jamiyatning kassasiga kirim qilmasdan kelish holatlaridan - 15,5 mln. so‘m;

- boshqa yo‘nalishlar (qurilish-sanoat va savdo obyektlarida ishlab kelayotgan 2908 nafar norasmiy ishlab kelayotgan ishchi-xizmatchilarni legallashtirish mehnat

faoliyatini qonuniylashtirish, tegishli tartibda mulkdor bilan ijara shartnoma tuzmasdan faoliyat ko'rsatib kelish holatlari, elektr-energiya, gaz ta'minoti, suvoqova idoralaridan olingan ma'lumotlar asosida soliq to'lovchilarning qamrovi tahlil yo'nalishlari) bo'yicha jami 19 ta holatda 330,6 mln.so'm qo'shimcha daromad manbalari aniqlangan.

22 ta YTTlarning faoliyat yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-oktabrdagi 850-sonli qarori talablariga mos kelmaganligi o'rganish davomida aniqlanib ushbu YTTlarning faoliyat shakllari yuridik shaxs sifatida qayta tashkil etildi.

Tuman mahalliy budjetining 1-yarim yillik davridagi amalga oshirilgan harajatlar ijrosi:

Bulung'ur tuman mahalliy budjeti harajatlar qisimning 1-yarim yillik aniqlangan rejasi 88 091,0 mln. so'mni tashkil etib, 2021-yil 1-iyul holatiga 89 131,9 mln.so'mga, yoki 101,2 foizga ijro etilgan.

Shundan, ish haqi to'lovlari ya'ni 1-guruh harajatlariga 28 434,7 mln. so'm mablag' ajratilib 27 756,6 mln.so'm harajat amalga oshirilgan.

Kam ta'minlangan oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash uchun 18023,6 mln. so'm miqdorida ijtimoiy nafaqalar berildi.

2-guruh yagona ijtimoiy to'lov harajatlari uchun 6 983 mln. so'm mablag' rejalashtirilib 6837,8 mln. so'm kassa harajati amalga oshirildi.

4-guruh (boshqa harajatlar) bo'yicha 34 600,0 mln. so'm mablag' ajratilib 38 742,9 mln. so'm miqdorida harajat qilingan.

Sohalar kesimida harajatlarni tahlil qiladigan bo'lsak, xalq ta'limi sohasiga 5 582,0 mln. so'm mablag' ajratilib, 5381,0 mln.so'm moliyalashtirildi, maktabgacha ta'lim sohasiga 9718,0 mln. so'm rejalashtirilib, 8974,3 mln. so'm o'zlashtirildi. Sog'liqni saqlash muassasalariga 25710,0 mln. so'm mablag' ajratilib, 25387,0 mln so'm mablag' moliyalashtirib berildi. Madaniyat va sport sohalariga 1770,9 mln. so'm mablag' ko'zda tutilgan bo'lsa, 1691,6 mln. so'm mablag' moliyalashtirildi.

Qolgan sohalar bo'yicha 45310,1 mln. so'm mablag' ajratilib, 47 698,0 mln. so'm mablag' moliyalashtirib berildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat

hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining XXXVI-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimlining moliya bo‘limi mudiri J.Narziyevning tuman budget ijrosi, shuningdek tuman salohiyatidan kelib chiqqan holda tuman budget daromadlarining qo‘shimcha manbalarini shakllantirish hamda qo‘shimcha manbalardan foydalanish yo‘nalishlari, jumladan, tuman budget daromadlarini oshirishning aniqlangan rezervlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti qoniqarsiz deb topilsin.

2. Tuman hokimlining moliya bo‘limi mudiri (J.Narziyev)ga;

tuman mahalliy budgetining 1-yarim yillik davridagi amalga oshirilgan harajatlar ijrosini asosli ko‘rsatgichlar bilan hisobotga puxta tayyorgarlik ko‘rgan holda xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyasida hisobot berishi belgilansin.

3. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budgetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Nomazov) va tuman hokimi birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev) zimmasiga yuklatilsin.

Кенгаш раиси



Б.Бахрамов